

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-MAY

ANDIJON,2024

O'ZBEK TILIDAGI BA'ZI BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Qurbanov Davronbek

Navoiy davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Har bir tilning lug'at takibida mavjud bo'lgan so'zlarining qo'llanish darajasi mavjud. O'zbek tilidagi ko'pgina leksemalar keng qo'llanishda bo'lgan umumnutq qatlam so'zlaridir. Ba'zilari esa tor qo'llanishga ega bo'lgan -chegaralangan qatlam birliklaridir. Bunday so'zlar adabiy me'yor sanalmaydi. Lekin badiiy asarlarda tildagi mavjud bo'lgan so'zlar bilan birga mahalliy nutq koloritini berish, personajlar nutqini individuallashtirish maqsadida nofaol leksik birliklar ham qo'llanadi. Ular uslubiy vosita sifatida asarga o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi va shu tilga xos lingvomadaniy jihatlarni ham aks ettiradi.

Kalit so'zlar: lug'at tarkibi, so'larning qo'llanish darajasi, chegaralangan qatlam, misollar, nofaol so'zlar izohi.

Ona tili bo'limgan millatning, xalqning o'zi yo'q. Leksika muttasil o'sish va rivojlanishda bo'lib, har bir tilning lug'at takibida mavjud bo'lgan so'zlarining qo'llanish darajasi mavjud. Ko'pgina leksemalar keng qo'llanishga, ba'zilari esa tor qo'llanishga ega bo'ladi. Leksik birliklar qo'llanilishiga ko'ra farqlanadi, ya'ni qo'llanishi chegaralanmagan qatlam va qo'llanishi chegaralangan qatlam leksikasi. Chunki bunday so'zlar avvalo qaysi til bo'lmasin, o'sha til uchun adabiy me'yor sanalmaydi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, har bir tilda bu kabi nofaol so'zlar qatlami mavjud va ularni alohida izohlash lozim bo'ladi.

O'zbek tilidagi chegaralangan qatlam so'zлари o'ziga xos semantik xususiyatlarga ega. Bunday so'zlar haqida tushunchaga ega bo'lish uchun qo'shimcha izohli lug'atlarga murojaat qilishi lozim.

O'zbek tilidagi qo'llanilish doirasi chegaralangan leksika avvalo ikkiga bo'linadi: 1) Qo'llanilish doirasi chegaralangan leksika 1) dialektal leksika; terminologik leksika; 3) noadabiy leksika vulgarizm va varvarizmlar, argo va jargon. 2) Qo'llanilish davri chegaralangan leksika. Bular eskirgan qatlam so'zлари—istorizmlar va arxaizmlardir. [1. 104-b.]

Qo'llanilish doirasi chegaralangan leksika. Dialektizmlar. Ma'lum bir hududda yashovchi kishilar nutqiga xos leksema dialektal leksika deyiladi. Badiiy asarlarda asar qahramonlari nutqini real holatda berish maqsadida dialektizmlardan foydalaniladi [2.156-b.] va bu daialektizmlar lingvokulturologik jihatini ham ko'rsatib turadi. J. Abdullaxonovning "To'fon" romanidan keltirilgan quyidagi matn parchasiga nazar tashlaylik:

Ichkaridan Anvar chiqdi. Nima bo 'layotganini angshara olmay serrayib turdi.

- Voy, anavi olvolini ko 'ring, — dedi Qumrixon o 'rnidan turib.
- Olvoling nimasi?
- Olvoli de, huv ana.
- Chiyani aytasanmi?

Qumrixon bog 'is tone ha chiya so'ziga tushunmadi.

- Olchami?

Erkin Samandarovning «Daryosini yo'qotgan qirg'oq» romanidan keltirilgan bu dialogda

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-MAY

ANDIJON,2024

mevaning bir turi uch xil nom bilan — olvoli, chiya va olcha leksemalari vositasida atalgan, bu hoi ikki (Namangan va Bo'ston) sheva vakillari o'rtasidagi nutqiy muloqotning jonli, hayotiy chiqishiga xizmat qilgan.

Tuproq olsang, oltinu

Kul olsang, kumush bo'lsin!

Seni tinglab ulg'aygan

Ullar Alpomish bo'lsin! (O. Hojiyeva.)

Ul- qipchoq svevasida "o'g'il" ma'nosida qo'llanadi.

" Keluttiman" degan shevasi yaxshi,

Bog'larida jannat mevasi yaxshi...

O. Hojiyevaning "Namanganlik singillarimga" she'rida muallif namanganliklarga xos mahalliy koloritni ifodalash uchun ularning shevasiga xos "kelutti" so'zni keltirgan. Kelutti so'zida grammatik dialektizm bor ,ya'ni kel+ut (hozirgi zamon qo'shimchasi /-yap/+ ti /sahxsson/)

Kasb-hunar leksikasi.Turli kasb-hunarlar bizning kundalik yumushimizni tashkil qiladi. Ularning har birining o'ziga xos farqlovchi jihatlari bor. Ana shu turli kasb-hunar egalari nutqida qo'llanuvchi leksemalar kasb-hunar terminlari deyiladi. Kasb-hunar atamalari ham dialektlardek nisbiy tushunchadir. Kasb-hunar atamalari shu hunar egasi qaysi sheva vakili bo'lsa, shu sheva leksikasi tarkibiga kirishi ham mumkin. Masalan, Shahrisabz shevasiga mansub hunarmand ishlataladigan atama Buxoro shevasida bo'imasligi mumkin.[3.189-b.] Shuning uchun kasb-hunar leksikasi ikki hissa chegaralangan leksikani tashkil etadi.

Oybekning "Bolalik" qissasida kasb -hunarga oid turli xil so'zlar qo'llangan. Asarni o'qish jarayonida bunday so'zlar haqida o'quvchilarga bunday so'zlar haqida izoh yoki tushuncha berib o'tish zarur. Quyida etikdo'zlikka oid ayrim so'zlar va ularning ma'no xususuyatlari haqida fikr yuritamiz:

Men ivarsiq do'konxonada titina boshlayman: shonlar, qoliplarni taraqlatib qo'yaman.(12-bet). Shon-“ mahsi yoki etik qo'njiga qo'yiladigan tayoq-qolip”. (O'TIL. 4. 594-bet). Qolip-“tikiladigan poyabzalning ichiga qo'yiladigan va uning katta-kichikligini, shaklini belgilaydigan moslama”.(O'TIL.5.325)

– Bor suv olib kel, shirach qoqamiz, – deydi bobom.(25-bet). Shirach aynan sirach. Sirach degan o'simlikdan tayyorlanadigan kukun. Bu kukundan etikdo'zlikda va kosibchilikda ishlataladigan yelim tayyorlanadi. (O'TIL.3. 520.)

Vulgarizmlar-haqorat ma'nosida qo'llanadigan so'zlar. Vulgarizmlar yoki ularning vulgar ma'nolari adabiy til birligi sanalmaydi, ularni qo'llash nutq madaniyatiga xilof deb qaraladi, ammo badiiy asar tilida bunday so'zlardan uslubiy vosita sifatida foydalilanildi.

Haromi- 1)shariat bo'yicha, an'ana yoki tartib-qoidalarga ko'ra man etilgan ish, xattiharakat; shu yo'l bilan topilgan narsa; hayotida shunday yo'l tutuvchi kimsa.

2)ko'chma "shunday ma'noli so'kish, haqoratni bildiradi; iflos, yaramas".

Sallaqi- sharm-hayoni bilmaydigan, bo'lar-bolmas janjal ko'taradigan ayollarga nisbatan qo'llanadi.

E, haromi, bas deyman senga, shallaqi! Xo'rdani ming shukur deb ichib o'tiraver. (Oybek.) Jargon -kasbi, jamiyatdagi o'rni, qiziqishi, yoshiga ko'ra alohida sotsial guruhnii tashkil etgan kishilarning, asosan, og'zaki nutqida ishlataladigan birliklar ham qo'llanishi chegaralangan leksik birlik sifatida badiiy asarlarda qo'llangan bo'lsa, ularga ham alohida snoskada izoh berish zarur.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-MAY

ANDIJON,2024

Hosilboyvachchaga aytib qo 'y: senikini artkuncha, o 'zinikini eplasin. Kelib-kelib o'shandan panoh izladiningmi, e so'tak! (Tohir Malik.). So'tak- go'l, axmoq kishiga nisbatan so'kish so'z sifatida qo'llanadi.

Argotizm va jargonizmlar, asosan, jonli so'zlashuvda, tor doirada ishlataladi. Ulardan badiiy asarda obraz va personajlarni tipiklashtirish maqsadida foydalanish hollari ham uchraydi. Masalan: Bu qora yer yutkurning yo 'rg'a chiqarishini yetti uxlab tushida kim ko'ribdi. (Hamza. Paranji sirlari.) Yo'rg'a-yengil tabiat ma'nosida.

Bu yerdagilarning hammasi o'zini pasajjir deb hisoblaydi... Ammo suyanish uchun tog' kerak. Ochiqlikda hatr oy maosh olarmidig? Ha, olarding. Xuddi shunga o'xshab, suyanadigan tog' haqini har oyda to'lab turasan. Sen bugun biksangga bir malyava yozasan. (Tohir Malik. Alvido, bolalik.) Pasajjir-tasodifan qamalganodam; tog'-himoyachi, biksa- xotin, malyava-xat.

Qo'llanilish davri chegaralangan leksika. Eskirgan qatlam so'zlari. Bu qatlamga istorizmlar va arxaizmlar kiradi. Har bir xalqning o'z tarixi bor va tilda aks etmay qolmaydi. Tarixiy mavzuda yozilgan badiiy asarlarda o'sha davrga xos koloritni yaratish maqsadida yoki zamonaviy mavzuda yozilgan asarlarda eskirgan qatlam so'zlari uslubiy maqsadda qo'llandi. Tarixiy leksema hozirgi o'zbek tilida qo'llanuvchi o'tmishga oid, iste'moldan chiqib ketgan narsa-hodisani bildiruvchi leksemadir. Humoyun ayollar va bolalarga Xo'ja Muazzamni javobgar eshik og'a qilib tayinlab ketgan edi. (P.Qodirov.Avlodlar dovoasi.) Eshik og'a- O'rta Osiyo xonliklarida xon saroyidagi bosh xizmatkor. Oliy hukmdorning turli marosimlarini o'tkazish ishlariga mutasaddi bo'lgan shaxs.[3.O'TIL. 5.64-b.]

Shig'ovul ellik yoshlardagi mosh-guruch soqolli, barvasta va ozg'in Xo'ja Husaynni eshikdan boshlab kirganda Said Xalil uni tanib, yuragi shig' etib ketdi. (P.Qodirov.Avlodlar dovoasi.) Shig'ovul- Buxosro ba Xiva xonliklarida elchilarini kutib olish, ularni xon huzuriga olib kirish

Xudo senga bir botmon kuch bergen-u, bir misqol aqlni ayagan! (Oybek. "Quyosh qorammas"). Botmon— o'rta Osiyoning, shuningdek, O'zbekistonning turli yerlarida turli mezonga, salmoqqa ega bo'lgan (ikki puddan o'n bir pudgacha. Pud esa 16,38 kg ga teng) og'irlik o'lchov birligi. [O'TIL.1.329-b.] Botmon aslida eskirgan so'z, istorizm bo'lib, "O'rta Osiyoning, shuningdek, O'zbekistonning turli yerlarida turli mezonga, salmoqqa ega bo'lgan (ikki puddan o'n bir pudgacha. Pud esa 16,38 kg ga teng) og'irlik o'lchov birligi" [3.O'TIL.1.329-b.] hisoblanadi. Yuqoridagi misolda botmon-botmon takror shaklda "juda ko'p miqdorda" ma'nosini ifodalagan

Arxaizm o'z o'rnini boshqa leksemaga bo'shatib bergen leksik birlik. Lekin hozirda bularning sinonimlari bor. Ijtimoiy taraqqiyot natijasida ayrim narsa-hodisa boshqa leksema bilan atalib, avvalgilari iste'moldan chiqib ketadi. Bu tengi yo'q kishvarga zeb berib, hilva qomatlarini tamanno bilan tebaratib, anvoi bo'yoqlari bilan fusun sochib yotgan adadsiz gul va chechaklar qolmabdi. (Sh.Rashidov. Kashmir qo'shig'i.) Kishvar (f.)— mamlakat; eski kitobiy so'z. Hilva—"jussasi ingichkadan kelgan, xipchabel, nozik" [O'TIL. 5.529.] Fusun—eski kitobiy so'z; "joziba, chiroy" ma'nosida fusun sochib qo'shma fe'li tarkibida kelgan. Anvoi – arabcha "navlar, xillar" ma'nosini anglatuvchi "anvo" so'zidan olingan Anvoi "har xil, turli- tuman" ma'nosini anglatadi. Bir matn doirasida bir necha eskirgan qatlam so'zlari, hatto ualrning ko'pchiligi eski kitobiy so'zlar, muallif tomonidan nutqqa tantanavorlik, ko'tarinkilik ruhini berish maqsadida qo'llangan.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-MAY

ANDIJON,2024

Istorizmlar faqat o‘zi mansub bo‘lgan xalq tarixi, turmush tarziga xos bo‘lgan, turli ijtimoiy-iqtisodiy atamalar sifatida lingvomadaniy birlik sanaladi.

Arxaizm o‘z o‘rnini boshqa leksemaga bo‘shatib bergan leksik birlik. Lekin hozirda bularning sinonimlari bor. Ijtimoiy taraqqiyot natijasida ayrim narsa-hodisa boshqa leksema bilan atalib, avvalgilari iste’moldan chiqib ketadi. Tilda bunday so‘zlarning uchrashi ham mulohaza talab qiladi. Shuning uhun arxaizmlarning semantik xususiyatlarini to‘g‘ri anglash uchun lug‘atlarga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi.

Har qanday til yoki dialektda boshqa tilga bir so‘z bilan tarjima qilib bo‘lmaydigan so‘zlar mavjud bo‘ladi. Bunday so‘zlarga muqobilsiz leksika deyiladi. Muqobilsiz leksika muayyan xalq madaniyatiga xos hodisalarini aks ettiradi. [5.]

Har bir tilda faqat shu tilgagina xos bo‘lgan muqobilsiz leksik birliklar mavjud. Ular tilning milliy-mental xususiyatlarini ifodalaydi. Chegaralangan qatlam so‘zları ham muqobilsiz leksik birlik sifatida tarjimada maxsus izoh talab qiluvchi birliklardan sanaladi. Hatto o‘zbek tilidan boshqa tillarga tarjima jarayonida ham o‘zbek tilig xos bo‘lgan chegaralangan qatlam so‘zlarini alohida izohlash, ma’no xususiyatlarini yoritish lozim bo‘ladi. Izoh uchun qo‘sishimcha “O‘zbek tilining izohli” lug‘ati yoki boshqa lingvistik lug‘atlarga murojaat qilish kerak bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Sayfullayeva R. va jamoa mualliflar.Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T.2009.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T.2006.
3. Rahmatullayeva Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T.: 2006. 358-b.
4. Umrqulov B. Badiiy adabiyotda so‘z. T.1993. 6-b
5. Jamoa mualliflar. O‘zbek tili leksikologiyasi.T.1981.
6. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. T.:2019.
7. Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2015.
8. O‘TIL.–O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-jild. T.:2006.
O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild. T.:2006 .
O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 3-jild. T.:2007.
O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-jild. T.:2007.
O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-jild. T.:2008.